



TA'LIM TO'G'RISIDAGI QONUN DOIRASIDA O'QUVCHILARNING SONIGA OID CHEKLOVNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Choriyev Ulug'bek Rustamovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20486521>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil
Ma'qullandi: 28-may 2026 yil
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEY WORDS

Sinf hajmi, ta'lim sifati, Ta'lim to'g'risidagi qonun, OECD, boshlang'ich ta'lim..

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonun doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablari sinflarida o'quvchilar sonini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) tashkilotining a'zolari bo'lmish Ispaniya, Gretsiya, Italiya va Avstriya kabi rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi qonunchiligi o'rganib chiqildi. Shuningdek, maktablarda sinf hajmining ta'lim sifati va o'qituvchilarning ta'lim berish samaradorligiga ta'sir hamda ahamiyati ham xalqaro statistik ma'lumotlar orqali o'rganildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bosh islohotlardan biri - bu ta'lim tizimini tubdan yangilash va o'zgartirishga qaratilgan takomillashtirish chora - tadbirlari hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan ta'lim sifati oshirish eng muhim strategik qadamlardan hisoblanishi ta'kidlab o'tilganligi bois davlatning ta'limga oid qonunchiligini takomillashtirish hamda uni dunyo tajribasi asosida zamonaviy va rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasiga oid qonunchiligi asosida moslashtirishga ehtiyoj borligi hammamizga ma'lum. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan (35) oshmasligi belgilab qo'yilgan. Ammo, tadqiqot natijalari, xalqaro statistikalar va dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki ta'lim jarayonining samaradorligi aynan mana shu sinflardagi o'quvchilar soniga ham bog'liqdir. O'qituvchilarning har bir o'quvchiga nisbatan individual yondashuvi va ularning o'z ustida ishlashiga yordam berishi uchun, albatta, vaqt zarur. Ta'lim oluvchilarning sinfda ko'pligi bois ko'plab pedagoglarning bunga ulgira olmasliklari tabiiy holdir. Shu sababdan ham ushbu tadqiqotning maqsadi OECD ga a'zo davlatlar Ispaniya, Gretsiya, Italiya va Ispaniya hamda xalqaro statistik ma'lumotlar, shuningdek, chet el olimlarining sinfdagi o'quvchilar sonining ta'lim olish jarayonining samaradorligidagi o'rnini haqida aytib o'tgan fikrlari asosida O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunining 9-moddasiga sinf hajmi cheklovlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya

Yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarga erishish uchun tadqiqot davomida huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy tahlil, qiyosiy huquqiy hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Italiyaning 2009-yildagi 81-sonli Prezident dekreti, Avstriyaning "Maktablarning tashkil etilishi to'g'risida"gi qonuni hamda Ispaniyaning "Ta'lim to'g'risida"gi organik qonuni asosida tahlil qilindi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda chet davlatlarining ta'lim sohasidagi qonunchiliklari o'zaro taqqoslandi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) e'lon qilgan turli mamlakatlardagi o'rtacha sinf hajmini ko'rsatuvchi grafik ko'rsatgichlar o'rganib chiqildi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ta'lim to'g'risidagi qonunning 9-moddasidagi "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak" degan norma xalqaro tajribadan ancha farq qiladi hamda undagi son hajmiga oid cheklov takomillashishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasining 637-sonli "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" 2020 - yili 23-sentabr kuni qabul qilingan. Ushbu sinf hajmiga oid qaysi huquqiy manbalarda keltirilganligi doirasida tarixiy - huquqiy tahlil qiladigan bo'lsak, Vazirlar Mahkamasining 2017-yili 15-martdagi 140-sonli qaroriga muvofiq "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida" gi nizom qabul qilingan. Ushbu nizomning 28-bandida keltirilishicha, belgilangan me'yorlar bo'yicha tegishli maydonga ega bo'lgan umumta'lim muassasining sinflari to'liqligi 35 nafardan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi deb belgilab qo'yilgan. Mazkur nizom orqali O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilinguniga qadar ma'lum bir vaqt mobaynida sinflarning hajmiga doir talabni tartibga solib turgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasida "Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risid" 203-sonli qarori qabul qilingan edi. Ushbu qarorda umumiy o'rta ta'limni tashkil etish tartibi berilgan bo'lib, unda sinflarning hajmiga oid norma mavjud emas. Bu vaqtda sinf hajmiga doir talablar shtat normativlari hamda yo'riqnomalarida belgilangan. Xususan, rivojlangan chet mamlakatlarning ta'lim sohasidagi qonunchiligiga ko'a quyidagilar aniqlandi:

Italiyaning 2009-yildagi 81-sonli Prezident dekretining 10-moddasiga ko'ra boshlang'ich maktabga oid qoidalar berilgan bo'lib, unda 5-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalarni hisobga olgan holda, boshlang'ich maktab sinflari odatda kamida 15 nafar va ko'pi bilan 26 nafar o'quvchidan tashkil etiladi. Zarur hollarda (qoldiq o'quvchilar mavjud bo'lganda) ushbu son 27 nafargacha oshirilishi mumkinligi belgilangan. Avstriyaning "Maktablarning tashkil etilishi to'g'risida"gi qonunining 14-paragrafida Boshlang'ich maktab sinfidagi o'quvchilar soni maktab direktori tomonidan belgilanadi. Bunda pedagogik va xavfsizlik talablari, o'quvchilarning qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojlari, mavjud binolar (joy) imkoniyatlari, shuningdek o'qituvchilarga tushadigan yuklama hamda mazkur maktabga § 8a uchinchi qismiga muvofiq ajratilgan pedagog kadrlar resurslari inobatga olinadi deb belgilab qo'yilgan. Jumladan, Gretsiyaning qonunchiligiga ko'ra boshlang'ich maktablarda, agar kamida yettita sinf mavjud bo'lsa, har bir sinfdagi o'quvchilar soni kamida 15 nafar va ko'pi bilan 25 nafar etib belgilanadi. Quyi va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sinfdagi o'quvchilar sonining eng yuqori chegarasi 27 nafar etib belgilanadi. Bunda tegishli hududiy ta'lim boshqarmasi rahbari alohida hollarda ushbu chegarani 10 foizgacha oshirishga ruxsat berishi mumkinligi aytilgan. OECDning 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, Gretsiyada ta'lim sifatini

oshirishning huquqiy mexanizmi sifatida boshlang'ich sinflarda o'quvchilar soni 25 nafardan oshmasligi qat'iy belgilangan. Bu tartib 2020-yildagi 4692-sonli Qonun va bir qator vazirlararo qarorlar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday cheklov o'qituvchilarga o'quvchilarni individual baholash va ularga o'z vaqtida qayta fikr-mulohaza berish imkonini yaratmoqda. Shuningdek, Ispaniya davlatining Ta'lim to'g'risidagi qonunining **157-moddasida Ta'lim sifatini oshirish va pedagog xodimlarni qo'llab-quvvatlash uchun resurslar to'g'risidagi norma mavjud bo'lib, unda**

Ta'lim organlari ushbu Qonunni amalga oshirish jarayonida quyidagilarni ta'minlash uchun zarur resurslarni ajratadi:

a) Majburiy ta'lim bosqichlarida sinfdagi o'quvchilar sonining eng yuqori chegarasi quyidagicha belgilanadi:

— boshlang'ich ta'lim uchun — 25 nafar o'quvchi;

— majburiy o'rta ta'lim uchun — 30 nafar o'quvchi bo'lishi kerakligi nazarda tutilgan.

Professor Jeremy Finn tadqiqotlariga ko'ra, sinf hajmining kichikligi o'qituvchiga har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga moslashish imkonini beradi. Katta sinflarda esa o'qituvchi vaqtining katta qismini dars o'tishga emas, balki intizomni saqlashga sarflashga majbur bo'ladi deb xulosaga keladi. Finnning "Student Engagement" nazariyasiga ko'ra, kichik sinflarda o'quvchilar ko'proq savol berishadi va dars jarayonida faol ishtirok etishadi. Bu esa ularda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va o'quv dasturini chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi deb yozadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida har kim ta'lim olish huquqiga ega ekanligi belgilangan.[7] Davlat sifatli ta'limni kafolatlaydi. Ya'ni sinfda o'quvchilar sonining haddan tashqari ko'pligi davlatning sifatli ta'limni ta'minlash majburiyati bilan zid keladi. Chunki, o'qituvchi har bir bola bilan ishlashga ulgira ololmaydi, bu esa o'z navbatida ularning konstitutsiyaviy huquqi bo'lmish ta'lim olish huquqini cheklaydi. Hamda Konstitutsiyamizning 50-moddasining 5-qismida

Umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir deb yozilgan. Demak, sinf hajmini takomillashtirish davlatning ta'lim sifatini nazorat qilish majburiyatidir.

O'zbekistonda ta'lim tizimining takomillashuvi, o'quv rejaları va dasturining yangilanishi, o'qitish bosqichlari va shakllarining yangilanishi respublikada ta'limni yuqori darajaga ko'tarishga erishishni ta'minlaydi.[8] Shu bilan bir qatorda, ta'lim sifatini oshirish maqsadida tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egaligi qonun bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 52-moddasida "Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" degan qoida belgilandi. Bu moddada o'qituvchilarning huquqlari himoya qilinishi belgilangan bo'lib, agar o'qituvchilarga haddan tashqari ko'p oquvchilar topshirilsa bu nafaqat ularga jismoniy qiyinchilik tug'diradi, balki ularga ruhiy bosim ham ta'sir ko'rsatadi.

Sinfda o'quvchilar sonining kamligi ta'limni individuallashtirishga (har bir o'quvchiga alohida yondashishga) ko'proq harakat qilish va sinfdagi muhitning yaxshilanishi bilan bog'liqdir.[9] Kuzatishlar hamda o'qituvchilar va o'quvchilar bilan o'tkazilgan intervyulardan foydalangan holda, tadqiqotchilar Gonkongdagi to'rtta o'rta ta'lim bosqichidagi til o'rganish


sinflarida o'quvchilar kichik guruhlarda (sinflarda) bo'lganida o'qishga ko'proq ishtiyoqmand va jalb qilinganliklarini aniqlashdi .[10]

Shuningdek, AQSh tarixidagi ta'lim. Ular sinflardagi o'quvchilar sonini 16 nafargacha kamaytirdilar, aniqrog'i, ilgari 30 nafar o'quvchi bo'lgan sinflarni 20 nafargacha qisqartirdilar. Tadqiqotda ular o'qituvchilar sifatini o'zgarimas holda saqlab, kichikroq sinflarning sabab-oqibat ta'sirini aniqlash uchun ijtimoiy eksperiment va innovatsion statistik usullardan foydalandilar. Yakunda ular 30 nafar o'quvchisi bo'lgan sinflarga qaraganda, 20 nafar o'quvchisi bo'lgan sinflarda o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'sir sezilarli darajada yaxshilanganini aniqladilar. Katta sinflarda insholar yozish va og'zaki taqdimotlar qilish ehtimoli kamroq, va ular ko'proq ko'p variantli javoblarga ega testlar orqali o'quvchilarni baholashga moyil bo'ladilar. Shuningdek, katta sinflarda o'qituvchilar, odatda, dars berishning yagona usuli sifatida ma'ruzalardan foydalanadilar; kichik sinflar esa dars xonasida ko'proq o'zaro muloqot mavjudligi sababli interaktivroq va jozibadorroqdir. O'quvchilarning faol ishtirokini talab qiladigan sinflar odatda kichik bo'ladi. Kichik sinflar samarali bo'lishga moyil, chunki o'quvchilar shunchaki tinglash va o'qish o'rniga materialni faol qayta ishlaydilar.[11]

Sinf hajmi va o'quvchilarning akademik natijalari o'rtasida salbiy bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, guruh hajmi o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalariga ta'sir qilmasligi mumkin, biroq gap o'qish ko'nikmalari haqida ketganda, sezilarli o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston viloyatlarida faoliyat yuritayotgan til o'qituvchilarining aksariyati o'quvchilariga vaqt ajratish yetishmasligidan shikoyat qilmoqdalar hamda zamonaviy tillar darsida guruhlarini bo'lish uchun sinflar yoki o'qituvchilar yetarli emasligi sababli past akademik ko'rsatkichlarni namoyish etmoqdalar.

Haddan tashqari gavjum sinflar global ta'lim muammosiga — o'quvchilarning yomon xulq-atvoriga sabab bo'luvchi omil sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda; bu muammo nafaqat maktablardagi tengdoshlariga, balki universitet muhitidagi o'zaro munosabatlarga ham ta'sir qiladi.

Mazkur tadqiqotlar natijasida quyidagi ma'lumotlar aniqlandi.



<https://oecdeditoday.com/how-does-class-size-vary-around-the-world/>

Yuqorida berilgan grafik ko'rsatgichlari O'zbekistonda sinf guruhlaridagi 35 nafar o'quvchilarning maksimal chegarasining xalqaro darajada ko'p ekanligini isbotlaydi. Aksariyat davlatlarda boshlang'ich sinflar quyi o'rta ta'limga qaraganda kichikroq hajmdadir, chunki boshlang'ich sinfda bolaga individual e'tibor ko'proq kerak bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktablarda sinflarning hajmi ta'lim olish jarayonining samaradorligiga ta'siri katta ahamiyatga egadir. Sinflarning katta hajmda ekanligi o'quvchilarning sifatsiz ta'lim olishiga olib kelishi mumkin hamda o'qituvchilarning o'quvchilarga vaqt ajrata ololmasliklarining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining ta'lim oluvchilarga nisbatan individual yondashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham bizningcha, "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida ta'lim oluvchilar soni: boshlang'ich ta'limda — yigirma besh nafargacha tayanch o'rta ta'lim va o'rta ta'limda — o'ttiz besh nafargacha bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, alohida hollarda, ta'lim tashkilotining binosi sig'imi, pedagogik va xavfsizlik talablari, pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda ta'lim oluvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlari inobatga olingan holda, vakolatli hududiy ta'lim organi qaroriga ko'ra, mazkur cheklov beshtagacha oshirilishi mumkin bo'lishini ham taklifimizga kiritib o'tamiz. Lekin, bunda byudjet masalasini ham inobatga olib, aniq nechtaga kamaytirilishini hal qilish kerakligi zarurdir.

Agar mazkur taklifimiz Ta'lim to'g'risidagi qonunga implementatsiya qilinadigan bo'lsa, biz ta'lim jarayonida yuz beradigan ijobiy islohotlarga va rivojlanishlarga guvoh bo'lamiz. Shuningdek, pedadog va o'quvchi o'rtasidagi muloqot va individual vaqt ajratish ta'lim olish samaradorligiga olib keladi. Xalqaro tajribaga asoslangan holda, buni tatbiq etish O'zbekistonning nafaqat xalqaro maydondagi nufuzin, balki ta'lim sifati ko'rsatgichlarini ham tubdan o'zgartirib yuboradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr.
2. Greece Law 4692/2020. Upgrade of the School and other provisions. Official Gazette of the Hellenic Republic. 2020.
3. Italy Presidential Decree No. 81/2009. Rules for the reorganization of the school network and the efficient use of human resources. 2009.
5. Joint Ministerial Decision 129818/Γ2/2013. Regulations on primary and secondary education class sizes in Greece. 2013.
6. Finn, J. D. (1998). Class Size and Students at Risk: What is Known? What is Next?. Washington, D.C.: U.S. Department of Education, Office of Educational Research and Improvement.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz). – 2023-yil 1-may.
8. Mualliflar jamoasi. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 800 b.
9. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London and New York: Routledge, 2009.
10. Harfitt M., Tsui A. Classroom Discourse and the Space of Learning: Embedded Cases of Class Size. – London and New York: Routledge, 2015.

11.Turayeva I. Student's Academic Performance in Large-Sized Groups in Higher Education Context // Jurnal yoki Konferensiya nomi. – 2026. – № X. – 12-18).



INNOVATIVE
ACADEMY